

INKLYUZIV TA'LIM: TENG IMKONIYATLAR SARI NAZARIY VA METODOLOGIK YONDASHUV

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim
yo'nalishi talabasi **Raxmonova Mexriniso Shuxratovna***

Email: mexrinisoraxmonova252@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada inklyuziv ta'limning nazariy va metodologik asoslari, shuningdek, uning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Globallashuv va demokratik islohotlar sharoitida ta'lim tizimida inson huquqlarini ta'minlash va teng imkoniyatlarni yaratish prinsiplariga asoslangan inklyuziv ta'lim konsepsiyasi tahlil qilindi.*

Kalit so'zlar: *Inklyuziv ta'lim, teng imkoniyatlar, ta'lim islohotlari, pedagogik metodlar, islohotlar.*

ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ОБЕСПЕЧЕНИЮ РАВНЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ

Аннотация: *В данной статье освещены теоретические и методологические основы инклюзивного образования, а также его роль и значение в современной системе образования. Рассмотрена концепция инклюзивного образования, основанная на принципах обеспечения прав человека и создания равных возможностей в условиях глобализации и демократических реформ в системе образования.*

Ключевые слова: *инклюзивное образование, равные возможности, образовательные реформы, педагогические методы, реформы.*

INCLUSIVE EDUCATION: THEORETICAL AND METHODOLOGICAL APPROACHES TOWARDS EQUAL OPPORTUNITIES

Annotation: *This article highlights the theoretical and methodological foundations of inclusive education, as well as its role and significance in the modern education system. The concept of inclusive education based on the principles of human rights protection and creating equal opportunities in the context of globalization and democratic reforms in the education system is analyzed.*

Keywords: *inclusive education, equal opportunities, education reforms, pedagogical methods, reforms.*

KIRISH: Hozirgi globallashuv va demokratik islohotlar sharoitida jamiyatimizda inson huquqlarini ta'minlash, hech kimni e'tibordan chetda qoldirmaslik prinsipiga asoslangan ta'lim tizimi shakllanmoqda. Shaxsiy kuzatishlarimga ko'ra, bu boradagi eng dolzarb yo'nalishi biri-inklyuziv ta'lim hisoblanadi.

Inkluziv ta'lim deganda, men barcha bolalar-jumladan, nogironligi bor, ijtimoiy himoyaga muhtoj yoki boshqa rivojlanish ehtiyojlariga ega bolalar ham- umumiy ta'lim muassasalarida bir xil sharoitda, birgalikda ta'lim olishini tushunaman. Bu yondashuv bolalarning jamiyatga to'laqonli qo'shilishi, ijtimoiy integratsiyasi va teng imkoniyatlar yaratishda muhim o'rin tutadi.

ASOSIY QISM: Inkluziv ta'lim bugungi kunda nafaqat pedagogik tushuncha, balki inson huquqlari va ijtimoiy adolatning ifodasi sifatida qaralmoqda. Ushbu yondashuv jamiyatda har bir bola-uning sog'lig'i, qobiliyati yoki ijtimoiy holatidan qat'i nazar-sifatli ta'lim olish huquqiga egaligini tan oladi. Inkluziv ta'limning nazariy asoslarini chuqurroq tahlil qiladigan bo'lsak, bu yondashuv ko'plab mashhur pedagogik g'oyalar bilan chambarchas bog'liq. Jumladan, V. S. Vigotskiyning [“Yaqin rivojlanish zonasi”] nazariyasi, J. Deweyning [“Tajribaga asoslangan ta'lim”] kontseptsiyasi, M. Montessori va H. Gardner kabi olimlarning ko'p qirrali aql konsepsiyalari inkluziv ta'limning psixologik-pedagogik poydevorini tashkil etadi. Vigotskiy fikricha,

bola faqat mustaqil emas, balki boshqalar bilan o'zaro muloqotda rivojlanadi. Inkluziv ta'lim muhiti esa aynan turli ehtiyojga ega bolalarni bir joyda to'plab, ularning bir-biridan o'rganishiga imkon yaratadi. Dewey esa ta'limni hayotiy faoliyat bilan bog'lab, o'quvchilarning shaxsiy tajribasini qadrlaydi. Bu metodologiya aynan shaxsga yo'naltirilgan ta'limning, ya'ni har bir bolaning ehtiyojini individual ravishda hisobga olish tamoyilining ilmiy asosidir.

Bugungi kunda zamonaviy metodologik yondashuvlarda shaxsiylashtirilgan ta'lim, differensial yondashuv, ko'maklashuvchi texnologiyalar (assistive technologies), interaktiv metodlar va universal o'quv dizayni (Universal Design for Learning – UDL) keng qo'llanilmoqda. UDL modeli o'quv materiallarini turli formatlarda taqdim etish orqali o'quvchilarning barcha toifalarini qamrab olishni maqsad qiladi. Masalan, eshitishda qiynalayotgan o'quvchi uchun vizual materiallar, ko'rishda muammosi bo'lganlar uchun audiomateriallar, harakat bilan o'rganadiganlar uchun faol mashg'ulotlar taklif etiladi. Shuningdek, turli darajadagi topshiriqlar, alternativ baholash tizimlari ham har bir bolaning salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Shu bois, o'qituvchilardan nafaqat o'z fanini bilish, balki pedagogik moslashuvchanlik, psixologik sezgirlik va ijtimoiy empatiya ham talab etiladi.

O'zbekiston sharoitida inklyuziv ta'lim sohasida so'nggi yillarda sezilarli yutuqlar kuzatilmoqda. 2020-yilda "Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi, 2021–2025-yillarga mo'ljallangan Milliy inklyuziv ta'lim strategiyasi, ayrim eksperimental maktablarda maxsus sinflar tashkil etilishi bu boradagi ijobiy islohotlar sirasiga kiradi. Xolmurzaeva Madina Sayfullaevna va Jalolova Shakhnoza Mukhamedjanovnaning ["Challenges and Strategies in Inclusive Education for Students with Sensory Impairments"] ushbu tadqiqoti ingliz tilini o'rgatishda eshitish, ko'rish, nutq bilan bog'liq cheklovlariga ega bolalar duch keladigan to'siqlar va ularni yengish metodlarini o'rganadi. Shu bilan birga, mavjud

muammolar ham yo'q emas. Xususan, ko'plab umumta'lim maktablari jismoniy infratuzilma jihatdan nogiron bolalar uchun moslashtirilmagan, pedagogik kadrlar maxsus tayyorgarlikdan o'tmagan, o'quv dasturlari esa ko'p hollarda bir xil uslubga asoslangan va o'quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olmaydi. Abdullayeva Gavhar Saparovna ham ["Features of inclusive education with children with special educational needs in Uzbekistan"] maqolasi orqali ko'rish imkoniyati cheklangan bolalar va ko'r bo'lmagan bolalar uchun ingliz tili darslarida universal kirish tizimi (universal access), audio-lingval va kommunikativ metodlar ishlatilishi va ular yordamida darsni qanday moslashtirish mumkinligini misollar bilan ko'rib chiqadi. Shuningdek, jamiyatda, ayniqsa ayrim ota-onalar orasida, inklyuziv ta'limga nisbatan noto'g'ri qarashlar saqlanib qolmoqda — ba'zilar alohida ehtiyojli bolalar "oddiy" bolalarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, deb hisoblaydi. Aslida esa, tajriba shuni ko'rsatadiki, inklyuziv muhitda o'qigan bolalar ko'proq bag'rikeng, ijtimoiy jihatdan faolligi yuqori va emotsional jihatdan barqaror bo'ladi.

Mening shaxsiy kuzatuvimga ko'ra, ayrim maktablarda o'qituvchilar o'z tashabbusi bilan darslarda moslashtirilgan materiallar, vizual ko'maklar yoki yakka tartibda ishlash usullaridan foydalanishga harakat qilmoqda. Bu, albatta, quvonarli holat. Biroq bu tashabbuslarni tizimlashtirmasdan, ularni umumta'lim darajasiga olib chiqmasdan, inklyuziv ta'limni to'liq joriy qilish mushkul. Shu sababli, ta'lim tizimining barcha darajalarida quyidagi choralarni ko'rish muhim deb hisoblayman: birinchidan, pedagog kadrlar uchun majburiy inklyuziv ta'lim kurslarini joriy etish; ikkinchidan, maktablar infratuzilmasini jismoniy imkoniyati cheklangan bolalarga moslashtirish; uchinchidan, ijtimoiy stereotiplarni yengish uchun ota-onalar va jamoatchilik bilan ko'proq tushuntirish ishlarini olib borish; to'rtinchidan, har bir hududda inklyuziv ta'lim bo'yicha resurs markazlarini tashkil etish. Bu markazlar o'qituvchilarni

metodik jihatdan qo'llab-quvvatlashi, o'quvchilarga psixologik yordam ko'rsatishi va ota-onalar uchun maslahatlar berishi mumkin.

Su o'rinda ta'kidlash lozimki, inklyuziv ta'lim faqat nogiron bolalar masalasi emas, balki butun jamiyatda tenglik, ijtimoiy birlashuv va insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirish yo'lida muhim vositadir. Bu tizim orqali har bir bola o'zini qadrlangan, tushunilgan va qo'llab-quvvatlangan his qiladi. Carmen del Rosario Navas-Bonillaning ["Inclusive Education through Technology: a systematic review of types, tools and characteristics"] nomli maqolasida texnologiyaning inklyuziv ta'limdagi roli va qanday qurilmalar-vositalar samarali ekanligi, shuningdek, mualliflar tomonidan resurslar yetishmasligi, o'qituvchilarning tayyorgarligi kabi muamolar ham ko'tariladi. Shu sababli, inklyuziv yondashuvni ta'lim siyosatining markaziga aylantirish - kelajak avlodni ijtimoiy mas'uliyatli va tolerant shaxslar sifatida tarbiyalashning eng muhim omillaridan biridir.

XULOSA: Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta'limni rivojlantirish - bu faqat ta'lim tizimidagi texnik yoki tashkiliy o'zgarishlar bilan cheklanib qolmaydi. Bu jarayon butun jamiyatning dunyoqarashi, qadriyatlari va munosabatlarining tubdan yangilanishini talab qiladi. Chunki haqiqiy inklyuziya - bu nafaqat nogironligi bo'lgan bolalarni ta'lim jarayoniga jalb qilish, balki har bir insonning teng huquqli va qadrli ekanligini anglashdan boshlanadi.

Bundan tashqari, inklyuziv yondashuv jamiyatda bag'rikenglik, hamjihatlik va mehr-oqibat tamoyillarini mustahkamlashga yordam beradi. Bolalar va yoshlar bu muhitda bir-birining farqliligini qabul qilib, o'zaro hurmat, hamkorlik va yordam ko'rsatish madaniyatini egallaydilar. Bu esa uzoq muddatda jamiyatda ijtimoiy integratsiya va barqarorlikni ta'minlaydi

Shuningdek, inklyuziv ta'lim tizimini shakllantirishda barcha darajalarda - maktabdan tortib oliy ta'limga qadar-o'qituvchilar, ota-onalar, hukumat organlari, nogironlar tashkilotlari va keng jamoatchilikning faol

ishtiroki muhim. Har bir kishi bu jarayonda o'z roli va mas'uliyatini anglab, ta'limning teng va sifatli bo'lishi uchun birgalikda harakat qilishi zarur.

Natijada, har bir bola-uning imkoniyati qanday bo'lishidan qat'iy nazar- to'laqonli rivojlanish, o'z salohiyatini to'liq namoyon etish va jamiyat hayotida faol, hurmatga sazovor a'zo bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu nafaqat ta'lim tizimining, balki butun jamiyatning haqiqiy taraqqiyoti va insoniy barkamolligi kafolatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullayeva, G. S. (2024). Features of Inclusive Education with Children with Special Educational Needs in Uzbekistan.
2. Dewey, J. (1938). "Tajribaga asoslangan ta'lim" (Experience and Education).
3. Navas-Bonilla, C. del R., Guerra-Arango, J. A., Oviedo-Guado, D. A., & Murillo-Noriega, D. E. (2025). Inclusive Education through Technology: A Systematic Review of Types, Tools and Characteristics.
4. Vygotskiy, L. S. (1934). "Yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi.
5. Xolmurzaeva, M. S., & Jalolova, S. M. (2025). Challenges and Strategies in Inclusive Education for Students with Sensory Impairments.